

**Djamshid KOBULOV,**  
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida

## ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY ZARURIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ichki ishlar organlari faoliyati yo'nalishining muhim tarkibiy qismi bo'lgan fuqarolar va aholi bilan muloqot jarayoni ham davr va zamon taqozosiga ko'ra muttasil takomillashtirib borayotganligi doir masalalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Muloqot, muloqot madaniyati, ichki ishlar organlari, fuqaro, huquq, suhbat, kasbiy mahorat.

## СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ В ОРГАНАХ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация

В данной статье освещаются вопросы, связанные с тем, что процесс диалога с гражданами и населением, являющийся важной составляющей направления деятельности органов внутренних дел, постоянно совершенствуется в соответствии с требованиями времени и времени.

**Ключевые слова.** Коммуникация, культура общения, органы внутренних дел, гражданин, право, беседа, профессионализм.

## THE SOCIAL NECESSITY OF FORMING A CULTURE OF COMMUNICATION IN THE INTERNAL AFFAIRS BODIES

Annotation

This article highlights issues related to the fact that the process of dialogue with citizens and the population, which is an important component of the activities of the internal affairs bodies, is constantly being improved in accordance with the requirements of time and time.

**Keywords.** Communication, communication culture, internal affairs bodies, citizen, law, conversation, professionalism.

Ichki ishlar xodimlari asosan aholi bilan bevosita faoliyat olib boradigan, ularning kundalik turmushidagi hayot-mamot darajadagi xususiyatlari bilan aloqador masalalarni hal etadigan kishilar hisoblanadi. Shu jihatdan aytganimizda ularning kishilar, insonlar guruhlar va turli xil tuzilmalar bilan olib boradigan muloqot tarzining yuqori saviyada, ya'ni madaniy darajalarda olib borishlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan jarayon hisoblanadi. Chunki, ichki ishlar organlari xodimlarining kundalik faoliyati atrof-muhitdagi insonlar bilan doimiy muloqot olib borish bilan kechadi. Bu muloqot jinoyatchilik bilan bog'liq bo'lishi yoki profilaktik tadbirlar bilan ham aloqador bo'lishi mumkin.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ichki ishlar xodimlari kuni bilan yo'llagan tabrigida quyidagicha e'tiroflar mavjud: "Barchamiz yaxshi bilamizki, hamma sohalarda bo'lgani kabi ichki ishlar tizimida ham yuksak malakali, zamonaviy fikrlaydigan, o'z kasbiga, Vatanimiz va xalqimizga sodiq kadrlar islohotlar taqdirini belgilab beradi. Shu ma'noda, mamlakatimiz o'z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichiga ko'tarilayotgan bugungi sharoitda har bir xodimdan yetarli bilimga ega bo'lish, muloqot va muomala madaniyatini oshirish, har qanday murakkab vaziyatda ham to'g'ri qaror qabul qilib, zimmasidagi vazifalarni sidqidildan bajarish uchun o'z ustida tinimsiz ishlash talab etiladi. Barchamiz uchun xalqimiz hayoti eng katta maktab ekanini hech qachon unutmaylik. Shu maktabda bilim olib, toblanib, el-yurt manfaatlari uchun kurashib yashash – bu eng oliy saodatdir" [1]. Ichki ishlar xodimlarining fuqarolar bilan bo'ladigan madaniy muloqoti ham o'ziga xos ijtimoiy va falsafiy mazmunlarga ega. Chunki, ular jamiyat milliy manfaatlari va huquqiy me'yorlardan kelib chiqib fuqarolar bilan muloqot qiladi. Mazkur muloqot tarzi davlat va jamiyat hamda inson faoliyati, uning xavfsizligi, tinch va osuda yashashi uchun qaratilgan bo'ladi. Mazkur maqsadlarni o'ziga jo qilgan holda har bir muloqot rejalashtirilgan, idoraning yo'l-yo'riqlari va ko'rsatmalari asosida tashkil etiladi. Bu jarayonda ichki ishlar xodimlari davlat tomonidan harakat qiladi, uning manfaatlarni ko'zlaydi. Mazkur muloqotlarning samarali tashkil etilishi nafaqat ichki ishlar organlari va ularning xodimlarini xalq orasidagi obro'sini oshiradi, balki xalqimizning ham davlat idoralari hamda jamiyatdan roziligini yuksaltiradi.

"Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunda ichki ishlar idoralarning fuqarolarning manfaatlarni ko'zlashi haqida quyidagilar ifodalangan:

"Ichki ishlar organlari o'z faoliyatini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish asosida amalga oshiradi.

Ichki ishlar organlari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, himoya qilinishini ta'minlaydi"[2].

Ichki ishlar xodimlarining muloqot madaniyati kishilar bilan to'liq o'zaro ishonch ruhida vujudga kelishi lozim. Bu ularning faoliyatining muhim bo'lagi hisoblanib, o'z sohasida muhim o'rin topishi va obro'-e'tiborining oshishiga olib keladi. O'zining kasbiy faoliyatida xodimda kishilar bilan muloqotga kirishishda yuqori kompetentlik holati muhim rol o'ynaydi. Muloqot jarayonida o'zaro bir birini tushunish muhim bo'lib, begonalashuv, hadiksirash va qo'rqish holatlari o'zaro kayfiyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ichki ishlar xodimlarining muloqot madaniyati quyidagi tuzilmaviy darajadagi o'ziga xosliklarga ega bo'ladi: Axborotli, bilishga oid, tashkiliy, maqsadli, yo'nalishli, faoliyatga oid, psixologik.

Axborotli tuzilmaviy darajada o'zi muloqot qilayotgan tomonlar bilan ma'lum ma'lumotlarni almashish, turli axborotlar bilan ularning hayot faoliyatiga ta'sir o'tkazish jarayoni aniqlanadi. Turli og'zaki va yozma nutqlarning samarali ravishda namoyon bo'lishi orqali o'z suhbatdoshida iliq taassurot qoldirish lozimligi ham mantiqiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Bilishga oid darajada boshqalarning xulqini, turmush kechirish faoliyati va qanday maqsadlarni ko'zlayotganligi haqidagi o'y-fikrlarini bilib olishga intilish jarayoni namoyon bo'ladi. Bu jarayonda xodimlar o'z suhbatdoshining nafaqat so'zida yoki yozuvida, balki imo-ishorasida nima fikrlar yoki talablar borligini uqib olishlari bo'yicha ko'nikmalari aniqlanadi. Tashkiliy darajada ichki ishlar xodimlarining kishilar bilan muloqotni tashkil etish va unga tayyorgarlik ko'rish jarayonlari tushuniladi. Bu

jarayonda xodimlar olib boriladigan muloqot yoki suhbatlarning o'tkazilish joyi, kimlar unda ishtirok etishi va moddiy-texnik ta'minot aniqlanadi. Shuningdek, bu faoliyatni olib borishda turli jamoat tuzilmalari bilan ham muloqot olib borish va o'zaro aloqalarni taashkil etish nazarda tutiladi.

Shuningdek, maqsadlarning aniqligi va ijtimoiy ko'lamliligi ham uning amalga oshirishida muhim ahamiyat kasb etishini e'tiborga olish joiz. V.Denisovning ta'kidlashicha, "Xulq-atvor madaniyati – axloqiy va estetik dunyoqarashni o'zida namoyon etishdir. Barcha xizmat jarayonlarida negativ xususiyatlardan o'zini xoli qilgan holda, militsiya xodimlari o'zida axloqiy normalarni namoyon etish, bosiqlik, xushmuomalalik, insonparvarlikka rioya etish, insonlarga adolatli bo'lish va hurmat munosabatlarini ko'rsatish, kasbiy etiket qoidalarini saqlash muhim ahamiyat kasb etadi"[3].

Psixologik darajada muloqot olib borish jarayonida ishtirok etuvchi kishilarning psixologiyasi, ruhiy kechinmalari va kayfiyatlarining qay darajada ekanligiga qarab tashkil etiladi. Bu jarayonda suhbatlarning samarali chiqishi kishilarning ruhiyatidagi bo'layotgan o'zgarishlarni aniq his etish, shunga qarab muloqot jarayonini olib borish muhim rol o'ynaydigan vaziyatdir. Shuningdek, muloqotni tashkil etishda har bir kishining ruhiy darajasidagi o'ziga xosliklarni ukib olish va shunga mos ravishda motivatsion gaplarni tanlash ham muhimligini qayd etish, joiz. Olimlarning ta'kidlashlaricha. "Xodim o'z faoliyati davomida turli yoshdagi, kasbdagi va turli huquqiy maqomga ega bo'lgan shaxslar bilan muomala qilishga to'g'ri keladi. Bu esa xodimdan shaxs psixologiyasini, xususan muomalaning psixologik asoslarini bilishni talab etadi. Xodimning kommunikativligi turli xil tergov, operativ qidiruv va profilaktik tadbirlarni to'g'ri tashkil qilish uchun nihoyatda zarurdir"[4].

Ichki ishlar xodimlarining muloqot yuritish madaniyatida o'ziga xosliklar, ularning ijobiy yo'naltirilganligi va yuqori saviyada olib borilishi har bir xodimning mahorat darajalarining qanday ekanligi bilan bog'liqdir. Bu borada turli sifatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

- yuqori dunyoqarash sohibi bo'lishi;
- adolatli bo'lishi;
- o'ziga jalb qila olish;
- diqqat-e'tiborli bo'lishi;
- suhbatdoshni tinglay olishi;
- suhbatdoshiga xayrixoh bo'lishi;
- suhbatdoshiga samimiy bo'lishi;
- suhbatdoshiga xushmuomala bo'lishi;
- tomonlarni hurmat qilishi.

Insonni oliy qadriyat ekanligini his etish, unga doimiy ravishda hurmat bilan muomala qilish va o'z xati-harakatlarini ham shunga muvofiq ravishda moslashtirish kabi jarayonlar xodimlar faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim. Falsafiy tilda aytganda har qanday harakatda va itilishlarning yakunida haqiqatni izlab topish va bu jarayon muloqot jarayonida muhim atribut bo'lishi muhimdir. Bu jarayonda ichki ishlar xodimlarining tashqi ichki qiyofasida insonga xayrixohlik, uning muammosini ijobiy hal qilishga qaratilgan maqsadlar yotishi lozim.

Ichki ishlar xodimlarining tashqi qiyofasi, ya'ni o'zini tutish madaniyati madaniyati ham muloqot jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot o'tkazilish jarayonida xodimning toza va ozoda kiyinishi, suhbat qilinadigan xonalarning shinamligi va ma'rifiy jihozlanganligi ham muhim rol o'ynaydigan holatlardandir. Suhbat jarayonida xodimning o'zini tutishi, har xil ehtirolarni jilovlay olishi, iliq kayfiyatda bo'lishi va qo'pollik ishlatmasligi hamda madaniyat bilan so'zlashi samarali yakuniy xulosaga va masalani yechimini topishda qo'l keladi. Bu jarayonda xodimning ruhiy va jismoniy holatlarining, ichki va tashqi qiyofasining mutanosibligi ham suhbatdoshi bilan umumiy til topishi, haqiqatni bilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar xodimlarining muloqot madaniyatini shakllanishida uning yuqori darajada ta'lim va tarbiyaga ega bo'lishi ham xarakterli jihatlardandir. Xodimning komil insonlik sifatleri va odamiylik darajalari bilan bog'liq sifatleri ham muloqot maqsadlariga erishishda muhim o'rin tutadi. Muloqotning maqsadi esa, mavjud haqiqatni izlab topish, kerakli me'yoriy xulosaga kelishdir. Maqsadlarga erishishda hech narsadan tap tortmaslik, turli noqonuniy ishlar qilish, suhbatdoshining sha'ni va qadr-qimmatini yerga urish kabi ba'zi xati-harakatlar kasb madaniyatiga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan yot jarayondir.

Muloqotning konstruktiv tarzda bo'lishi ham muhim jarayon hisoblanadi. Bu esa, ichki ishlar xodimining boshqalar bilan muloqotda bo'lish jarayonining qonuniylik kasb etishi, tegishli me'yorlar va yo'riqlar asosida tashkil etilishi kerakligi haqidagi xulosani keltirib chiqadi. Har doim muloqot jamiyatda amal qilayotgan qonunlar va me'yorlardan chetga chiqmasdan amalga oshirilishi, insonning huquqlari va manfaatlaridan kelib chiqishi muhimdir. Bu jarayonda ichki ishlar xodimlaridan jamiyatdagi mavjud qonunlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi ham talab etiladi. D.Vahobjonovning ta'kidlashicha, "Ichki ishlar organlarining isloh qilinishi - fuqarolarga, jamiyatga, uning institutlariga ochiqlik, shaffoflik, mavjudlik, o'zaro tushunish va hamkorlik asosida xizmat qilish jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha ishlarni sifat jihatidan yuqori darajada tashkil etishni nazarda tutadi"[5].

Samarali muloqotni olib borish uchun ichki ishlar xodimlari unga tayyorgarlik ko'rish, uni yuqori darajada o'tkazish uchun harakat qilishlari muhimdir. Ichki ishlar xodimlarining fuqarolar bilan muloqot madaniyatining yuqori bo'lishi uchun ulardan quyidagi ko'nikmalar talab etiladi:

- har xil ziddiyatli vaziyatlarni baholash salohiyatiga ega bo'lish, bunday jarayonlardan oson chiqib ketish, uni ijobiy tomonga qarata olish tajribasiga ega bo'lish;
- favqulodda vaziyatlarda ham muloqot qila olish tajribasiga ega bo'lish, bu vaziyatda o'zini yo'qotmaslik, to'g'ri qaror qila olish xususiyatlarini namoyon etish;
- turli xil toifadagi kishilarning har birini o'z xarakter, madaniyati, tili va xususiyatlaridan kelib chiqib, alohida asoslarda muloqot turlarini tashkil qila olishi;
- tegishli suhbatlarni yuksak intellektual darajada olib borish, bilimlar va tajribalarni o'z vaqtida ishga sola olish, intuitiv va kognitiv qobiliyatlarni ishga solish;
- suhbatni ijtimoiy va ma'naviy asoslarga yo'naltirish, ya'ni inson sha'nini birinchi o'ringa qo'ygan holda olib borish va bu borada milliy manfaatlarini hurmat qilish;
- suhbat asnosida axloqiy me'yorlarga rioya etish, yoshi kattalar va ayollar yoki boshqa toifalarga hurmat bilan yondoshish, yuqori darajadagi mulohaza bilan ish ko'rish.

Muloqot ichki ishlar xodimlari, fuqarolar va jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zagi hisoblanib, u soha faoliyatini hayotda qanday olib borilayotganligini aniqlaydigan o'ziga xos jarayondir. Shuningdek, xodimlarning muloqot

davomida o'z kasbiga professional yondoshuvi ularning fuqarolik madaniyatini yuqoriligiga ham bog'liq bo'ladi. Zero, "Fuqarolik madaniyati, ongli intizom, jamoani hurmat qilish va boshqa juda ko'p ma'naviy-axloqiy fazilatlar, jumladan, boshqalarga g'amxo'rlik qilish, odamlarning g'am-tashvish, quvonchini tushuna olish, o'z manfaatidan o'zgalar manfaatini ustun qo'yish, axloqiy me'yorlar hamda mavjud qonunlarga zid hatti-harakatlarni to'xtata olish ma'lum hatti-harakatlarni amalga oshirishda jamoa a'zolarining fikri bilan o'rtoqlashish, mas'uliyatni his etish kabilarga asoslanishi kerak"[6].

Shuning bilan birgalikda tizimda aholi bilan samarali muloqotni olib borilishida ish joylarining texnik ta'minoti, axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlanganligi, fuqarolar qabuli uchun barcha shart-sharoitlarning yaratilganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot tarzining aniq, mantiqiy va maqsadga muvofiq bo'lishining shartlaridan yana biri fuqarolarning maqsad va ehtiyojlarini oldindan aniqlashtirib olishdir.

Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, fuqarolar bilan muloqot jarayoniga ichki ishlar tizimining faoliyatidagi ish qizg'inligi, doimiy tig'iz vaziyatlar, ruhiy-emotsional holatlar va kayfiyatlarining doim yuqori bo'lmasligi, charchash va diskonfortlik kabi ko'rinishlar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki, ichki ishlar tizimida ko'pincha turli xildagi odamlar bilan ishlanadi, ya'ni ko'p hollarda axloqiy buzuc yoki ruhiy holati yaxshi bo'lmagan kishilar bilan muloqot qilishga to'g'ri keladi. Ana shunday muloqotlar xodimlarning umumiy ish unumiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ko'pgina hollarda murakkab vaziyatlarni yengib o'tishlariga to'g'ri keladi.

Ichki ishlar xodimlarida jinoyatlar yoki turli huquqbuzarliklar bilan bog'liq ishlarni ochishda jinoyat sodir etgan shaxslar, guvohlar, xolislar va boshqa ishtirokchilar bilan suhbat o'tkazishda haqiqiy ahvolni aniqlash bilan bog'liq maqsadlarni ko'zlab har biri bilan o'ziga xos tarzda suhbatlar olib borishi lozim. Bunday hollarda ko'pincha mazkur muloqotda ishtirok etuvchilarning haqiqiy ahvolni aytishdan qochishlari, chalg'itadigan fikrlarni aytishlari ko'pincha namoyon bo'ladi. Shunday hollarda xodimning vaziyatni to'g'ri baholashi va o'ziga xos mahorat, yig'ilgan tajribalardan kelib chiqqan holda muloqotni tashkil etishi muhim jarayondir. Ichki ishlar xodimlarining so'z yordamida o'zining fikrlarini to'la namoyon qila olishi, maqsadga yetishga qaratilgan holda og'zaki nutq madaniyatiga og'ishmay rioya etishi ham muhim bosqichdir. Og'zaki nutqning ravon bo'lishi, suhbatdoshini o'ziga jalb qila olishi va unga ijobiy ta'sir o'tkaza olishi muloqot madaniyatida muhim rol o'ynaydi. Suhbat jarayonida nutqning ravon bo'lishi ichki ishlar xodimlarining muloqot amaliyotida deyarli to'qson foiz maqsadga yetishga olib borishi tajribalardan ma'lum. Nutq madaniyatini amaliyotda doimiy qo'llab borish chuqur rejalashtirilgan bo'lishi, ma'lum ssenariylar va tayyorgarlik bosqichlari asosida tashkil etiladi. Shuning bilan birgalikda konstruktiv muloqot tarzida madaniy jarayonlarning mavjudligi va og'zaki nutqning ravon bo'lishi har qanday ashaddiy jinoyatchini ham xulqini yaxshi tomonga o'zgarishiga ham ta'sir qilishi mumkin.

Yuqori kasbiy mahorat asnosida olib boriladigan suhbatlar jarayonida har ikkala tarafning umumiy fikrlar uyg'unligiga kelishi ta'minlanadi. Shuningdek, jinoyatchi yoki boshqa suhbat subyektlarining nafaqat og'zaki gaplaridan, balki turli xil ishoralaridan ularning nima demoqchi bo'layotganligi yoki qanday maqsadlarni ko'zlayotganligini bilib olish mahorati ham bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar suhbatdoshini yolg'on ma'lumotlar orqali chalg'itishga urinayotganligini sezsa, xodimning shu vaziyatdan qanday chiqib ketishi, aniq vaziyatni aniqlash borasida o'zining kognitiv salohiyatini ishga solishi muhimligini ta'kidlash lozim.

Ichki ishlar xodimlarining fuqarolar bilan o'tkazadigan muloqot tajribasida suhbatdoshining ko'zidagi o'zgarishlarni ham hisobga olinadi. Ko'zidagi o'zgarishlarda aldamchi yoki o'g'rinchina nigohlar orqali ularning yolg'on aytisha moyilligini ham aniqlash mumkin. Bunga teskari ravishda inson ko'zidagi samimiylilik yoki xayrixohlik asosidagi nigoh uning suhbatda rost gapirishi va bu orqali jarayonda to'g'ri xulosaga kelish oson bo'lishini ham ta'minlashi mumkin. Demak, ko'zning harakatlari, ya'ni nigoh orqali amalga oshadigan ma'lumotlar almashish jarayoni ham muloqot tarzining muhim qismini tashkil etadi. Faqat ko'z orqali insonning nima deyishi mumkinligini yuqori bilimlar, kasbiy salohiyat va tajribaga ega bo'lgan xodimlar tez payqaydi.

Suhbatdoshning ko'zi va yuzining tuzilishidagi, shuningdek imo-ishoralaridagi o'zgarishlardan ichki ishlar xodimlari uning kasal yoki sog'lomligi, ruhiy jihatdagi holati, o'zini tutib tura olishi kabi holatlarni aniqlay oladi. Suhbat asnosida xodimning tadrijiy ravishda vaziyatni yumshatishga harakat qilib borishi, uni ijobiy tomonga o'zgartirishga harakat qishi muhim xususiyat hisoblanadi. Muloqot paytida xodim ham o'zining ijobiy sifatlarini ko'rsata olmasa, o'z tajribasi orqali fuqaroga yaxshi muomala orqali ta'sir o'tkaza olmasa, o'rtada ziddiyatli vaziyatlar ham namoyon bo'lishi mumkin. Mazkur nizoli vaziyatdan chiqib olish uchun ancha vaqt talab qilinadi, haqiqiy ahvolni aniqlashda ko'pgina resurmlar sarflanishiga olib keladi.

Og'zaki suhbatda maqsadga erishishda quyidagi xati-harakatlar muhim rol o'ynaydi:

- 1) suhbatdosh bilan iliq kayfiyatda ochiq holatda suhbat olib borish;
- 2) suhbatdoshni to'liq tinglay olish;
- 3) suhbatdosh bilan xayrixohlik ohangida gaplashish;
- 4) suhbatdoshning nima demoqchi bo'lganini tez aniqlash;
- 5) o'zi ham faol bo'lishi, suhbatdoshini ham faollikka undash.

Ichki ishlar xodimlari o'z suhbatdoshida doim yaxshi taassurot qoldirishga harakat qilishi lozim. Gap faqat xodimning shaxsi haqida ketmayapti, uning davlat xizmatchisi sifatida ish olib borishi ham bu yerda muhim ahamiyat kasb etadi. Militsiya xodimi o'z suhbatdoshi bilan davlat tomonidan ishtirok etib suhbat qilayotganligini doim his etib turishi lozim. Agar suhbat davomida ichki ishlar vakilining o'z lavozimini suiste'mol qilgan holda, qo'pol yoki tajovuzkor harakatlarni namoyon etadigan bo'lsa, suhbatdoshidan norozilik alomatlari vujudga keladi. Suhbat davomida ichki ishlar xodimlari o'zini domiy ravishda xotirjam tutishga harakat qilishlari lozimdir. Xodimning xotirjam emasligi suhbatdoshning ruhiyatiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Suhbatdoshida xodim haqida turli xil tazyiqlar o'tkazishi mumkinligi haqida fikrlar vujudga kelishi mumkin. Shuningdek, suhbatdoshining ruhiy kechinmalarini uqib olish, o'y-fikrlarini qay yo'sinda ifoda etayotganligiga qarab gaplashish ham muhimdir. Suhbatdoshning shaxsan o'zining o'tmishini ham o'rganishga harakat qilish, jinoyat tarixini to'liq tahlil etish asnosida u bilan savol-javoblar ketma-ketligini shakllashtirish ham zaruriy ahamiyat kasb etadigan vaziyatlarga kiradi. Shuningdek, suhbatning mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishiga ham qat'iy e'tibor qaratilishi kerak.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga tabrigi. 2023 yil, 25 oktyabr. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/prezident-ichki-ishlar-organlari-xodimlari-va-faxriylariga-tabrik-yulladi>.
2. Ички ишлар органлари тўғрисида. ЎРҚ-407-сон. Тошкент ш., 2016 йил 16 сентябрь. <https://lex.uz/acts/3027843>

3. Денисов В. Ички ишлар ходимларининг хулқ-атвори ва муомала маданияти. Психопедагогика в правоохранительных органах, 2003, №2 (20). –С.20.
4. Асямов С.В., Пулатов Ю.С. Ички ишлар органлари ходимларининг касбий-психологик тренинги. Т.: Академия, 2005. 27-б.
5. Ваҳобжонов Д. Ички ишлар органларининг оммавий ахборот воситалари билан ҳамкорлиги. “PEDAGOGS” International research journal. Volume-30, Issue-1, March – 2023.
6. Гаипназаров Р. Маънавий-ахлоқий қадриятлар ва ёшлар тарбиясида уйғунлик. 13.00.01 – Педагогика назарияси ва тарихи Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. 2011 й. Б- 26.